

## ALOE O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARININI ANIQASH

*R.Abduraxmonova*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

### **Annotatsiya.**

Ushbu ishda aloe o'simligining dorivor va ishtaxa ochuvchi xususiyatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Boshqa tomondan bosh og'rig'i hamda tupurkuloz kassaliklarini davolash jarayonida o'simlik ekstraktlari foyda berishi haqida yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** antibiotic, foliy kislotasi, karotinlar, efir moylari, aminokislotalar, antraglikozidlar.

### **АННОТОЦИЯ**

В данной работе представлены сведения о лечебных и аппетитных свойствах растения алоэ. С другой стороны, были подчеркнуты преимущества растительных экстрактов при лечении головных болей и слюнных желез.

**Ключевые слова:** антибиотик, фолиевая кислота, каротины, эфирные масла, аминокислоты, антрагликозиды.

### **ABSTRACT**

In this work, information about the medicinal and appetizing properties of the aloe plant is presented. On the other hand, the benefits of plant extracts in the treatment of headaches and salivary glands have been highlighted.

**Key words:** antibiotic, folic acid, carotenes, essential oils, amino acids, anthraglycosides.

Inson va uning hayotida tabiat tomonidan taqdim etiladigan dorivor o'simliklar va ular asosida sog'likni tiklash, turli kasalliklardan davolanish, oldini olishdan keng foyd tabiiy vositalardan keng foydalaniladi.

Yara va uning tezda bitib ketishida aloe o'simligining axamiyati haqida juda ko'pgina manbalarda gapirib o'tilgan [1,2].

Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash klasterini tashkil etish. Muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning har safar olimlar bilan uchrashganlarida alohida urg'u berib; "Biz yetishtirgan maxsulotimizni ayniqsa qishloq xo'jalik maxsulotlarini hom ashyo holida emas, balki ilmiy yondashishimiz kerak.

Aloy loladoshlar oilasiga mansub bo'lib, Arabiston yarim orollarining janubiy-g'arbiy qismidagi aloe vera vatani Barbados va kyurasso aloe vera uzoq vaqtdan beri Xitoy, Misr Hindiston yevropada Iskandar Zulqarnaynning pardasi uchun hurmatga sazovar bo'lgan. Aloe vera Afrikda, Osiyoda, Amerikaning tropic va subtropikdan

Antil orollarida ochiq manzarali va yopiq o'simlik sifatida- dunyoning ko'plab mamlakatlarida yetishtiriladi [3].

Poyasi kalta va shirali qattiq barglardan iborat. Rozetli ko'p yillik doimiy. Yashil o'tsimon shirali o'simlik. Barglari deyarli vertical shaklda joylashtirilgan va uzunligi 60 sm ga etadi. Barglari chetida o'tkir tishlari bor. Gullari odatda sariq, ba'zan qizil tik pedicim (balandligi 90 sm gacha ) ustida inflorescence cho'tkada yig'iladi. Aloe juda ko'p yorug'lik va issiqlikni yaxshi ko'radi. Shuning uchun o'simlikni ochiq joylarda o'stiriladi.

Bugungi kunga kelib bu o'simliklarning xilma- xilligi juda ko'p – ularning 400 dan ortiq turi bor. Aloe tog'larda tropiklarda va hatto cho'lda ham mavjud. Gulining ichki ko'rinishi ham mavjud, daraxtga o'xshash murojat qilish odatiy holdir. Bu o'simlikning barglari qilich shaklida, kulrang-yashil ranga ega bo'lib, ularning qirralari bo'ylab ko'plab yumshoq boshhoqlar mavjud.

Bizda bu dorivor o'simliklarning ikki turi o'sadi. Daraxtsimon aloe (Aloe derevovidnoy) va yo'l-yo'l aloe (Aloe polosatoe). Tibbiyotda aloe bargining qurutilgan shirasi- sabur va boshqa preparatlar ishlatiladi. Aloe barglari va sabur tarkibida antrasen xosilalari smollar efir moyi, achchiq va boshqa moddalar bor. Saburning katta dozasi surgi dori sifatida kichik dozasi ovqat hazm qilishi yaxshilash va ishtaxa ochish maqsadida ichiladi.

Biogen stumlyatorlarga boy barglaridan suyuq ekstrakt (flakon va ampulalarda chiqariladi) liniment emulsiya shira sharbat va tabletka tayyorlanadi. Aloeni suyuq ekstrakti va tabletkasi ko'z kassaliklarida xamda boshqa kassaliklarda meda va o'n ikki barmoq ichak brontxial astma va boshqalarda ishlatiladi [3,5].

Aloe linementi va shirasi quyganda turli yaralar quruq va xo'l epidermitlarga nur va terapiya natijasida 2-3 daraja kuyganlarga ishlatilatiladi. Shirasi gastrit entrokolit va kabziyatda ichiladi. Aloy keyinchalik amalyotda foydalanish uchun o'siriladigan juda mashhur uy o'simlik xisoblanadi. Bu o'simlikni 350 dan ortiq turlari bor, uyda ulardan bittasi yetishtiriladi. Dorivor va foydali xususiyatlari mavjud bo'lib uning tarkibida aloe vera quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi; bular vitaminlar, aminokislatalar, fermentlar, minerallar, polisaxaridlar, efir moylari, antraglikozoidlar.

Kimyoviy tarkibi: aloe vera barglari va sharbatidan shilliq qavatni tirnash xususiyati beruvchi va ichak peristaltikasini kuchaytiruvchi antraglikozoidlar aloin - aloe – emodiun nataloil rababer – beron homonataloin mavjud, qatronli hosilalar, efir moylari, fermentlar, muhim va muhim bo'lmagan aminokislatalar, vitaminlar (B guruhi, xolin, foliy kislota, betakoratin, A, C, E vitaminlari), minerallar, kaltsiy, kaliy, natriy, magniy, sink, rux, xrom, fosfor, salitsil kislota, polisaxaridlar, fitosindlar.

Zamonaviy tibbiyotda ham aloeyning foydali xususiyatlari tan olingan va uni dori preparat sifatida foydalanadi. Xalq tabiblari aloening sharbatidan barglari va

ekstraktidan davo uchun qo'llaniladi. O'simlikning aloe vera turida dorivorlik xususiyatlari ko'p bo'lib, undan davo sifatida o'simlik kamida 3 yoshda bo'lishi kerak.



1-rasm. Aloe bargaining kesilgan ko'rinishi

Aloening yoshi qanchalik katta bo'lsa uning dorivorlik xususiyatlari ham shuncha ham yuqori bo'ladi. Bakterisit xususiyati tufayli aloe sharbati streptokokk va stafilakok infeksiyalariga qarshi ishlatiladi. O'simlik to'qimalarining yangilanishi tezlashtirish xususiyati yiringli yaralarda turli xil jarohat yallig'lanish kassaliklari va nurlanishni davolashda ishlatiladi.

Olimlar aloe sharbatidan teri kasalikkalari va sil kassaligini davolashda ishlatiladigan antibiotikni ajratib olinadi. Oftomologlar konyuktiv miopiya ko'z shishasimon tanasining xiralashishi va kataraktani oldini olishda aloe sharbati qo'shilgan tomchi vositalaridan foydalanadi. Aloe bosh og'rig'i qon kassaliklari bronxial astma va nevrozlarda ham foyda beradi [6,7].



2-rasm. Aloening amalda foydalanish usuli

Oshqazon va ichak kassalikkalarini davolashda ushbu dorivor o'simlikdan olingan dorilardan foydalaniladi. Ginekologik xastaliklarda ham ta'sir ko'rsatadi turli xil ginekologik yallig'lanish kassaliklariga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Bosh og'rig'i hamda tuberklyozda ham o'simlik ekstraktlari foyda beradi.

Aloedan tayyorlangan ichimlik tabiiy antibakterial vositadir. U tanada xavfli bakteriallarni chiqarib yuboradi, tuburklyoz tayoqchalari va stafilokokklar bilan kurashishga yordam beradi.

Suyuq moddalar bilan zaxarlanishda yordam beradi, toksinlarni yo'qatadi, oshqazon va ichak trakti faolliyatini normallashtiradi va metobalizmni yaxshilaydi. Aloy bargidan ajratib olingan sharbatidan kasmetalogiya sohasida yuz, qo'l va tana terisi uchun gel tayyorlanib foydalanadi. Chunki bizning yurtimizda Quyosh nuridan zarar ko'rish xollari juda ko'p uchraydi. O'simlik shu vosita tarkibida bo'lishi biroz engilroq o'tishini ta'minlaydi [6].

Xozirgi kunda biz sanoatda ishlab chiqariladigan kimyoviy dori vositalari organizm uchun bir qancha foydali va anchagina zararli ta'sirga ham egadir. Tabiiy dorivor o'simliklarda me'yoridan foydalinilgnda esa organism uchun zararli ta'sir bo'lmaydi. Shuning uchun dorivor o'simliklarni yetishtirish, noyob turlarini saqlab qolish va ko'paytrish bugungi kunda dolzarb masalalrdab biridir.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Холматов Х.Х., Косимов И.А. Словарь лекарственных растений.- Т., 1992. 50 с.
2. Аскарлов И.Р. Члены Медицинской академии Узбекистана. –Т.: «Наука и технологии», 2019. 280 с.
3. Холматов Х.Х., Ахмедов О.А. Фармакогнозия. – Т.: "ФАН". 2007. 384 с.
4. Х.Х.Холматов, И.А.Харламов. Шифобахш ўсимликлардан уйда фойдаланиш. –Т.: Ибн Сино номидаги нашриёт, 1992 й.,200 б.
5. <https://venalia.ru/blog/post/chem-polezen-aloe>
6. <https://stolichki.ru/stati/sto-let-bez-bed-pochemu-aloe-nazyvayut-stoletnikom>
7. <https://www.botanichka.ru/article/aloe-lechebnyie-vidyi-i-effektivnyie-retseptyi-primeneniya/>